	12.00.02 - Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi		
	Konstitutsiyaviy huquq		
T/r	O'zbekcha		
1.	Hokimiyat tarmoqlari oʻrtasida oʻzaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini saqlash prinsipining mohiyati va ahamiyatini yangilangan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga tayangan holda yoritib bering.		
2.	Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodining Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar oʻtkazilganidan soʻng taqdim etilishining ahamiyati va konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlarini tahlil qilib bering.		
3.	Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar nuqtayi nazaridan Oʻzbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga qoʻyiladigan asosiy talablar qanday?		
VI	Oʻzbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.		
5.	Oʻzbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida mustahkamlangan "xalq hokimiyatchiligi" prinsipi mazmun-mohiyati va uni amalga oshirishning institutsional-huquqiy mexanizmlarini tahlil qiling.		
6.	Oʻzbekiston Respublikasida demokratik institutlar tizimida ommaviy axborot vositalarining oʻrni va ahamiyatini yoritib bering? Ommaviy axborot vositalarini tartibga soluvchi huquqiy asoslarga tavsif bering?		
7.	Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan har bir shaxs mulkdor boʻlish huquqiga ega. Ushbu huquqning mohiyati nimadan iborat? Fikringizni amaliy misollar yordamida bayon eting.		
	Xalq deputatlari Kengashi va hokimning faoliyatida qonuniylikning kafolatlari deganda nimani tushunasiz? Misollar yordamida tahlil qiling.		
ч	Oʻzbekiston milliy qonunchiligida internetda axborot almashinuviga oid normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy tahlil qiling. Ushbu normalarni xalqaro standartlar va konsepsiyalar bilan qiyoslab baholang.		
10.	Ayrim davlatlarda konstitutsiyaga oʻzgartish va qoʻshimchalar faqat referendum oʻtkazish yoʻli bilan kiritiladi. Bunday tartibning Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish tartibiga nisbatan qanday salbiy va ijobiy jihatlari mavjud deb oʻylaysiz?		
11.	Milliy va xorijiy mamlakatlarda internetdan axborot olish masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikni qiyosiy-huquqiy tahlil qiling. Komparativistik yondashuv asosida oʻxshashlik va farqlarni koʻrsatib bering.		
12.	Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash deganda nimani tushunasiz, davlat organlarining bu borada vakolatlari mavjudmi?		
13.	Ta'lim olish huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiatini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qiling. Ushbu huquqning shaxsiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlarini ochib bering.		
14.	Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi sudyalarning hamjamiyati organi hisoblanadi. "Sudyalarning hamjamiyati" oʻz mazmuniga koʻra sudyalar jamoat birlashmasining bir koʻrinishidir. Mazkur organ tomonidan sudyalar korpusini shakllantirilishining konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlarini yoriting.		
15.	Yuridik adabiyotlarda oliy ta'lim olish huquqining huquqiy tabiati tahlil qilinganda bir qator yondashuvlar mavjudligini koʻrish mumkin. Jumladan, ayrim toifa olimlar oliy ta'lim olish huquqini tabiiy huquq sifatida e'tirof etsa, ayrimlari pozitiv huquq sifatida e'tirof etadi. Sizningcha, oliy ta'lim olish huquqi boʻyicha qaysi toifa olimlarning fikri toʻgʻri va nega? Fikringizni huquqiy asoslantirgan holda bildiring.		

- Konstitutsiyaviy huquqda asosan ikki yirik huquq instituti, ya'ni inson huquqlari hamda davlat 16. hokimiyatini tashkil etish va uni amalga oshirish bilan bogʻliq institutlar mavjud. Ushbu institutlarning oʻzaro nisbati qanday va ular oʻrtasidagi munosabatlar nimalarda namoyon boʻladi?
- Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonlariga jadal kirib kelmoqda. Sizningcha, bunday 17. texnologiyalarni ta'lim jarayonlarida qo'llashning qanday ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud deb hisoblaysiz. Fikringizni huquqiy asoslantiring.
- 18. Soʻnggi yillarda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy islohotlar haqida ma'lumot bering?
- 19. Davlat va jamiyat ishlarini boshqarishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil qiling. Uni siyosiy institutsional modellar nuqtai nazaridan turlarga ajratib izohlang.
- Konstitutsiyaviy huquqning yetakchi huquq sohasi sifatidagi oʻrnini yoritib bering. Konstitutsiyaviy huquqning jamiyat va davlat qurilishi sohasidagi ahamiyatini huquqiy jihatdan tavsiflab bering. Konstitutsiyaviy huquq fanining boshqa huquqiy fanlar bilan aloqasini huquqiy jihatdan asoslab bering. Ushbu aloqadorlik amaliyotda qanday oʻz ifodasini topganini tushuntirib bering.
- Internetdan axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlarini tahlil qiling. Jahon ilmida mavjud boʻlgan "axborot erkinligi" konsepsiyalari bilan solishtiring.
- Yangilangan Konstitutsiya muqaddimasi gʻoyalarining normativ xususiyatga egaligi hamda 22. konstitutsiya normalarida aks etishi xususida soʻz yuriting. Ushbu gʻoyalarning ijtimoiy munosabatlardagi oʻrnini huquqiy jihatdan izohlab bering.
- Oʻzbekistonda insonlarning sogʻliqni saqlash huquqi va malakaviy tibbiy xizmatdan foydalanishning 23. konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil qiling. Ushbu huquqni xalqaro inson huquqlari standartlari bilan qiyoslang.
- Oʻzbekiston Respublikasining davlat boshqaruv shaklini tushuntirib bering? Xorijiy mamlakatlardagi davlat boshqaruv shakllaridan farqlovchi jihatlari va belgilarini tushuntirib bering?
- Virtual makon bugungi kunning eng katta ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib kelmoqda. Shu oʻrinda virtual makon hamda internet tushunchalarini bir xil sinonimlar sifatida bilishimiz mumkinmi?
- 26. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi nimalarda namoyon boʻladi? Mas'uliyat va javobgarlik masalalariga huquqiy tavsif bering.
- 27. Huquq ustuvorligi va Konstitutsiyaning ustunligi oʻrtasida qanday farq bor deb oʻylaysiz?
- Oʻzbek tilining davlat tili maqomi darajasiga koʻtarilishi sabablarini yoritib bering. Jamiyatdagi turli munosabatlarida davlat tilining ahamiyatini huquqiy asoslab bering.
- Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiatini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan 29. tahlil qiling. Ushbu huquqning mazmunini xalqaro inson huquqlari standartlari va xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan qiyoslab baholang.
- 30. Oʻzbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpogʻiston Respublikasining konstitutsiyaviy maqomini tushuntirib bering.
- Huquqlarni turli shartlash asosida tasniflash ularni yana kengroq oʻrganishga imkon beradi. Ular bu turli 31. guruhlar toifasiga ajratish orqali bir biriga yaqin huquqlarni aniqlash mumkin. Ta'lim olish ijtimoiy huquqmi yoki madaniy huquq hisoblanadimi?
- 32. Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi milliy strategiyasining Oʻzbekistonda inson huquq va erkinliklarining kafolatlarini yaratishdagi ahamiyati nimalardan iborat deb oʻylaysiz?
 - Koʻpgina manbalarda konstitutsiyaviy huquq davlat va jamiyat qurilishiga doir munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquq sohasi ekanligi aytiladi. Ushbu yondashuv koʻproq klassik xarakterda boʻlib,
- 33. bunday yondashuvni toʻliq inkor etib boʻlmaydi. Sababi konstitutsiyalar davlat hokimiyati organlari tizimi, jamiyat tuzilishi, xususan, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining huquqiy maqomini belgilab beradi. Konstitutsiyaviy huquq yana qanday

2

34.	Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan har bir shaxs madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqiga ega. Ushbu huquqning mohiyati nimadan iborat? Fikringizni amaliy misollar yordamida bayon eting.
33.	Gender tengligining konstitutsiyaviy asoslarini muhokama eting. Sizningcha, gender tengligi nimani anglatishi lozim?
	Saylov huquqi nima? Saylov jarayonlari qanday bosqichlardan iborat? Majoritar va proporsional saylov nima?
37.	Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning konstitutsiyaviy-huquqiy holatida qanday farqlar mavjud deb oʻylaysiz? Fikringizni amaliy misollar yordamida bayon eting.
133	Davlat oʻz faoliyatida amal qilishi kerak boʻlgan prinsiplarga toʻxtalib oʻting? Ushbu prinsiplarga huquqiy jihatdan tavsif bering.
39.	Soʻz erkinligi deganda nimani tushunasiz? Mamlakatimizda soʻz erkinligini ta'minlash borasida soʻnggi yillarda qanday ishlar amalga oshirildi?
	Oʻzbekiston, oʻz fuqarolarini chet ellarda huquqiy himoya qilish tartibi va huquqiy asolarini tushuntirib bering?
	Xususiy mulkning daxlsizligi va davlat tomonidan himoya qilinishi hamda kafolatlarining huquqiy asoslari tizimini va huquqiy asoslarini tushuntirib bering?
42.	Fuqarolar oʻz ijtimoiy faolliklarini miting, yigʻilish va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Miting, yigʻilish va namoyish oʻrtasida qanday farqlar bor deb oʻylaysiz?
	Fuqarolar huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlarini yoriting. Davlatning fuqarolar huquq va erkinliklarining himoyachisi sifatidagi oʻrniga batafsil toʻxtaling.
44.	Sud orqali huquq va erkinliklarni himoya qilish deganda nimani tushunasiz? Huquq va erkinliklarni himoya qilishning boshqa yoʻllari va institutlari haqida tushuntirib bering?
43.	Oʻzbekiston Respublikasida Inson huquqlari boʻyicha vakil (Ombudsman)ning huquqiy maqomi va faoliyati yoʻnalishlarini batafsil yoritib bering.
	Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligi deganda nimani tushunasiz? Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslarini yoritib bering.
4/.	Aybsizlik prezumsiyasining mazmun-mohiyati nimadan iborat? Fikringizni hayotiy misollar yordamida bayon eting.
48.	Oʻzbekiston qoʻshilgan yoki ratifikatsiya qilgan inson huquqlari sohasiga doir xalqaro hujjatlarning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan oʻzaro nisbati qanday?
	Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini Konstitutsiya va qonunchilik asosida yoritib bering.
	Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining davlat hokimiyati organlari bilan oʻzaro munosabatlari haqida atroflicha toʻxtalib oʻting. Bu munosabatlarni amaliy jihatdan tavsiflang.
	Ma'muriy huquq
1.	Ma'muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplari va ahamiyatini tushuntirib bering.
	Oʻzbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar toʻgʻrisida"gi Qonunning qoʻllanilish sohasini yoritib bering.
	Oʻzbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar toʻgʻrisida"gi Qonunning byurokratik rasmiyatchilikka yoʻl qoʻyilmasligi prinsipini yoritib bering.
	3

munosabatlarni tartibga soladi?

- 4. Ma'muriy tartib taomillarning ishonchlilik prinsipini qo'llash tartibini tushuntirib bering.
- 5. Ma'muriy huquqda yuridik faktlarni tushuntirib bering.
- 6. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida boshqaruvning huquqiy va tashkiliy shakllarini yoritib bering.
- 7. Oʻzbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar toʻgʻrisida"gi Qonuniga binoan ma'muriy ish yuritishda ishtirok etish imkoniyatini istisno qiluvchi holatlarni sanab bering.
- 8. Ma'muriy huquqda rad qilish masalasini tushuntirib bering.
- 9. Ma'muriy protsess tushunchasini yoritib bering.
- 10. Ma'muriy sudlovning Fransiya modelini tushuntiring.
- 11. Ma'muriy hujjatni ixtiyoriy ijro etish muddatini tushuntirib bering.
- 12. Ma'muriy sud ish yurituvi doirasida qabul qilinadigan sud hujjatlarini tushuntirib bering.
- Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida boshqaruvning nohuquqiy shakllarini misollar bilan tushuntiring.
- 14. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda rad qilish toʻgʻrisidagi arizani hal etish tartibini tahlil qiling.
 - Ma'muriy huquqning rivojlanish zamonaviy tendensiyalariga ko'ra, uning tartibga solish predmeti
- 15. doirasiga ma'muriy huquqbuzarlik va javobgarlikka tortish bilan bogʻliq munosabatlar kiritilmayapti. Buning sabablari nimalardan iborat deb oʻylaysiz?
- 16. Ma'muriy sudga taalluqli ishlarning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.
- 17. Ma'muriy hujjat belgilarini tahlil qiling.
- Davlat xizmatlarini koʻrsatish tizimida joriy etilgan yangi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarga ma'muriy-
- 18. huquqiy nuqtai nazardan baho bering. Davlat xizmatlari koʻrsatish tizimini takomillashtirishda ma'muriy protseduralarning oʻrni qanday?
- Ma'muriy yustitsiyaning davlat boshqaruvi organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarining tiklanishida qanday oʻrni bor? Soʻnggi yillarda mamlakatimizda ma'muriy yustitsiyani rivojlantirishga qaratilgan qanday ishlar amalga oshirildi?
- 20. Ma'muriy-huquqiy munosabat turlarini tahlil qiling.
- 21. Ma'muriy ish yuritishda manfaatdor shaxs tushunchasining ahamiyatini tushuntirib bering.
- 22. Ma'muriy organ va davlat boshqaruvi organlari tushunchalarini farqlab bering.
- 23. Ma'muriy huquqning muhofazalovchi funksiyasini tahlil qiling va amaliy misollar keltiring
- 24. Ma'muriy ish yuritish ishtirokchilarini amaliy misollar yordamida tahlil qiling.
- Ma'muriy ishlarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishlilik masalasini amaldagi qonunchilik asosida tushuntirib bering.
- 26. Ma'muriy huquq predmeti, subyektini yoritib bering.
- Davlat boshqaruvida subordinatsiyaviy va koordinatsiyaviy ma'muriy-huquqiy munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
- 28. Dastlabki himoya choralari turini almashtirish haqidagi yoki almashtirishni rad etish toʻgʻrisidagi ajrim ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntiring.
- 29. Mudofaa va xavfsizlik sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlarining ma'muriy protseduraviy faoliyatini tahlil qiling.
- 30. Ma'muriy huquq tizimini yoritib bering. Ma'muriy huquqning maxsus prinsiplarini sanab bering.

Ma'muriy huquqda manfaatdor shaxs tushunchasini yoritib bering. Ma'muriy hujjatni bekor qilish tartib-taomilini O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-32. taomillar to'g'risida"gi Qonuniga binoan tushuntirib bering. Ma'muriy huquq uslublarini tushuntirib bering. Ma'muriy huquqning himoyalovchi funksiyasini va 33. ma'muriy ish yuritishda vakillik tushunchasini tushuntirib bering. Ommaviy xizmat va davlat xizmatining farqli jihatlarini tushuntirib beirng. 35. Ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqishni keyinga qoldirishni yoritib bering. Oʻzbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar toʻgʻrisida"gi Qonunga binoan manfaatdor 36. shaxslarning huquq va majburiyatlarini yoritib bering. Ma'muriy-huquqiy tartibga solishning fuqarolik-huquqiy tartibga solishdan farqli xususiyatlarini yoritib bering. Ma'muriy ish yuritishda ekspert tushunchasini yoritib bering. 38. 39. Ma'muriy tartib-taomillar tushunchasini yoritib bering. Ma'muriy ish yuritishda guvoh tushunchasini yoritib bering. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida boshqaruv uslublari tushunchasi va ahamiyati haqida fikr 41 bildiring. 42. Davlat xizmatlarini tartibga solishda ma'muriy reglamentlarning tutgan o'rnini yoritib bering. Ma'muriy sudlar tomonidan koʻrib chiqiladigan alohida toifadagi ishlarni ayting. 44. Ma'muriy ish yuritish muddatlarini tushuntirib bering. Ma'muriy ish yuritishda dalillar tushunchasini yoritib bering. 45. Ommaviy ma'muriy faoliyatda qonuniylikni ta'minlashda prokuror nazoratini tushuntirib bering. 47. Ma'muriy ish yuritishni to'xtatib turishni yoritib bering. 48. [Idoraviy normativ-huquqiy hujjatni haqiqiy emas deb topishning oʻziga xos xususiyatlarini tahlil qiling. Ma'muriy ish yuritishni tiklash va Ma'muriy ish yuritishni tugatishni tushuntirib bering. Ma'muriy ish yuritishni boshlash uchun asos bo'ladigan holatlarni yoritib bering. Moliya huquqi Davlat moliyaviy nazorati qanday shakllarda amalga oshiriladi? Davlat moliyaviy nazorati turlarini tushuntirib bering? Davlat moliyaviy nazoratining qanday usullari mavjud? Davlat maqsadli jamgʻarmalari mablagʻlarini shakllantirish manbalarini tushuntirib bering. 2. Budjet deganda nimani tushunasiz? Oʻzbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti mohiyati va uning tarkibini tushuntirib bering. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining budjet sohasidagi vakolatlarini izohlab bering. 4.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining budjet sohasidagi vakolatlarini izohlab bering.

5.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining budjet sohasidagi vakolatlarini izohlab bering. Davlat budjet xarajatlarini taqsimlanish masalasini tushuntiring. Dotatsiya mohiyatini yoritib bering. Budjet ssudasi mohiyatini tushuntririb bering. 10. Maqsadli ijtimoiy transfertalar qanday maqsadlar uchun ajratiladi? 11. Budjet jarayoni tushunchasini tavsiflab bering. Budjet jarayoni qanday bosqichlardan tashkil topgan? Davlat budjeti taqchilligi va budjet profitsiti tushunchalarini yoritib bering. Davlatning moliyaviy resurslarini ajratish usullari nima? Davlatning moliyaviy resurslarini safarbar 13. gilish usullarini tushuntirib bering. Pul resurslarining markazlashgan fondi deganda nima tushuniladi? Davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirish uchun majburiy toʻlovlar usullari nima? Davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirish uchun ixtiyoriy toʻlovlar usullari deganda nima tushuniladi? Siyosiy partiyalarning moliyalashtirilish tartibini tushuntirib bering. Quyi budjet daromadidan xarajat koʻpayib ketish ehtimoli yuzaga kelgan holda quyi budjet mablag'larini moliyalashtirish tartibini tushuntiring. 17. Davlat budjeti daromadi manbalarining turlarini qonun hujjatlari asosida tahlil qiling. 18. Moliya huquqi predmeti va tushunchasini yoritib bering. 19. Maqsadli ijtimoiy transferlar deganda nima tushuniladi? Bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida budjet tizimining oʻziga xos xususiyatlari. Mamlakatimizda 20. va xorijda budjet tizimi bilan bogʻliq munosabatlarning oʻrganilganlik darajasini keltiring. Budjet huquqiy munosabatlari deganda nimani tushunasiz va boshqa moliyaviy huquqiy 21. munosabatlardan ajralib turadigan oʻziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering. Budjet huquqiy munosabatlar borasida mamlakatimiz qaysi xalqaro huquqiy hujjatlarga qoʻshilgan? Majburiy auditorlik tekshiruvining oʻziga xos jihatlari va majburiy auditorlik tekshiruvidan oʻtishdan bosh tortganlik uchun javobgarlik masalalari. Oʻzbekiston Respublikasining majburiy auditorlik tekshiruvi boʻyicha qanday xalqaro miqyosdagi davlatlar bilan shartnomalari mavjud va ushbu shartnoma shartlari qanday? Xorijiy mamlakatlarda budjet mablagʻlarini moliyalashtirish qanday tartibga solinishini izohlang va huquqiy baho bering. Moliya huquqining boshqa huquq sohalari bilan oʻzaro munosabatlarini tahlil eting. Moliya tizimi 24. tushunchasi va uning tarkibiy elementlarini tahlil qiling. Moliya huquqining tizimi va manbalarini

Davlat qarzi tushunchasini yoritib bering. Oʻzbekiston Respublikasida davlat tashqi va ichki qarzining

tushuntirib bering.

huquqiy tartibga solinishi qanday amalga oshiriladi?

Davlat budjeti va mahalliy budjetlar tushunchasini yoritib bering. Oʻzbekiston Respublikasi budjet 26. huquqi tushunchasini, predmetini va manbalarini yoritib bering. Budjet huquqi subyektlarini tahlil eting. Oʻzbekiston Respublikasida soliqlar va yigʻimlar tizimi va ularning turlarini Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga binoan tushuntirib bering. Soliq munosabatlari boʻyicha qanday xalqaro shartnomalarni bilasiz va ularning yuridik kuchini tahlil 28. qiling. 29. |Budjet huquqiy munosabatlar borasida mamlakatimiz qaysi xalqaro huquqiy hujjatlarga qoʻshilgan? Soliq toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari qanday normativ-huquqiy hujjatlarni qamrab oladi? Ushbu roʻyxatda 30. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlarining oʻrnini tahlil qiling. 31. Xorijdan mablagʻ jalb qilish tartibini tahlil qiling. Soliglar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lashning umumiy shartlarini tavsiflang va tegishli normalar mazmunini izohlang. Ma'lumki soliq to'lovchilar muayyan huquq va majburiyatlarga egalar. Soliq to'lovchilar huquqlarini 33. tasniflang va ularning mazmunini izohlab bering. 34. Soliq huquqiy munosabatlarda lozim darajada ehtiyotkorlik tushunchasini tahlil qiling. 35. Budjet so'rovi mohiyatini tahlil qiling. Oʻzbekiston Respublikasining soliq rezidentlari va norezidentlari boʻlgan yuridik shaxslarning oʻzaro farqini tahlil qiling. Davlat budjetini qabul qilish bosqichini yoritib bering. 38. Davlat magsadli jamgʻarmalariga ta'rif bering. 39. Davlat tomonidan mablagʻ jalb qilish qanday maqsadlarni koʻzlab amalga oshiriladi? 40. Subvensiya mohiyatini tushuntirib bering. 41. Yigʻim deganda nimani tushunasiz va yigʻimlarning qanday turlarini bilasiz? 42. Soliq deganda nimani tushunasiz va soliqlarning qanday turlarini mavjud? Moliya deganda nima tushuniladi? Davlatning moliyaviy faoliyati deganda nima tushunilishi haqida fikr 43. bildiring. Davlat molivaviy nazorati tushunchasiga ta'rif bering. 45. Auditorlik tekshiruvi qanday turlarga boʻlinadi? 46. Beg'araz yordam mohiyatini tushuntirib bering. Ma'lumki, soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan 47. majburiyati soliq majburiyati deb e'tirof etiladi. Uning tartibi, bajarilish muddatlari va tugatilishini tushuntirib bering. Yuridik shaxs tugatilganda soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni toʻlash tartibini tushuntiring va tegishli normalarning mazmunini sharhlang. 49. Ichki moliyaviy nazorat va uning asosiy funksiyalarini tahlil qiling. 50. Sayyor soliq tekshiruvi qanday holatlarda oʻtkaziladi va uning soliq auditidan farqlarini tahlil qiling.

Bojxona huquqi

1. Bojxona toʻgʻrisidagi qonunchilikning vaqt boʻyicha amal qilishini tushuntirib bering.

- 2. Tovarni erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur boʻladigan hujjatlarni yoritib bering.
- 3. Reeksport bojxona rejimini tushuntirib bering.
- 4. Tovarni reeksport bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlarini tushuntirib bering.
- 5. Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimini tushuntirib bering.
- Tovarlar va transport vositalarini Oʻzbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib oʻtish 6. tartibini tushuntiring va bu boradagi qonunchilikka kiritilgan oʻzgartish va qoʻshimchalar haqida ma'lumot bering.
- Bojxona rejimlarining mazmuni va huquqiy asoslarini tahlil eting. Bojxona rejimlarining huquqiy tartibga solinishi va ularning oʻziga xos jihatlarini qonun hujjatlari asosida yoritib bering. Bojxona sohasidagi oxirgi huquqiy oʻzgarishlarni yoritib bering.
- 8. Davlat bojxona xizmatining davlat organlari tizimidagi oʻrni, vazifalari va maqsadlari nimalardan iborat?
- Bojxona toʻlovlarining turlari va oʻziga xos xususiyatlarini tahlil qiling. Xorijiy mamlakatlarda bojxona huquqining oʻziga xos jihatlarini yoritib bering. Bojxona huquqi mavzusining oʻrganilganlik darajasini keltiring.
- 10. Xorijiy mamlakatlarda bojxona toʻlovlari boʻyicha imtiyozlar qanday tartibga solinishini izohlang va huquqiy baho bering.
- Valyuta va eksport nazorati sohasida bojxona nazorati asoslarini huquqiy asoslab bering. Valyuta va eksport nazorati mavzusining xorijiy mamlakatlarda oʻrganilganlik darajasini koʻrsating.
- Bojxona ishi sohasida huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik masalalari. Bojxona to'lovlarining turlari va o'ziga xos hususiyatlarini tahlil qiling. Xorijiy mamlakatlarda bojxona huquqining o'ziga xos jihatlarini yoritib bering.
- 13. Tovarni boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlarini yoritib bering.
- Bojxona toʻgʻrisidagi qonunchilik boʻyicha tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga olib 14. kirilayotganda taqdim etiladigan hujjatlar va tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududidan olib chiqilayotganda taqdim etiladigan hujjatlarni tahlil qiling.
- 15. Tovarlarni va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib oʻtishga doir cheklovlar va tovarlar va transport vositalari olib kirilishini hamda olib chiqilishini taqiqlashni yoritib bering.
- Ma'lumki, tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib oʻtish maqsadlariga bogʻliq holda ularning bojxona 16. rasmiylashtiruvi bojxona rejimlarining turlariga muvofiq amalga oshiriladi, bojxona rejimlarining turlarini tushuntirib bering.
- 17. Bojxona tranziti bojxona rejimini tushuntiring.
- 18. Tovarni reeksport bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlarini tushuntirib bering.
- 19. Erkin bojxona zonasi bojxona rejimi deganda nima tushuniladi?
- 20. Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi deganda nima tushuniladi? Tovarni boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlarini yoritib bering.
- 21. Tovarni bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirish uchun zarur boʻladigan hujjatlarni yoritib bering.
- Yoʻq qilish bojxona rejimi deganda nima tushuniladi? Tovarni yoʻq qilish bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlarini yoritib bering.

- 23. Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimi deganda nima tushuniladi? Tovarni davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlarini yoritib bering.
- 24. Transport vositalariga va tovarlarning ayrim toifalariga nisbatan bojxona rejimlarining qoʻllanilishini tushuntirib bering.
- 25. Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda olib oʻtiladigan tovarlarni deklaratsiyalash tartibini yoritib bering.
- 26. Bojxona nazoratining predmeti nima? Bojxona nazorati zonasi deganda nima tushuniladi?
- Bojxona nazorati zonasidagi bojxona organlari mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
- 28. Bojxona nazoratini amalga oshirish shakllari va tartibini tushuntirib bering.
- 29. Bojxona koʻzdan kechiruvi va bojxona koʻrigi deganda nima tushuniladi?
- 30. Bojxona nazorati zonasidagi bojxona organlari mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlarini tushuntiring.
- Bojxona ekspertizasi tushunchasi va maqsadi nima? Ekspertning huquq va majburiyatlarini yoritib bering.
- 32. Ekspertlar komissiyasi tomonidan bojxona ekspertizasini o'tkazish tartibini yoritib bering.
- 33. Tovarlarni va transport vositalarini bojxona nazorati ostida tashish tartibini yoritib bering.
- Bojxona tashuvchisi deganda nima tushuniladi? Bojxona tashuvchilarining reyestriga kiritilish uchun zarur boʻladigan hujjatlarni yoritib bering.
- 35. Bojxona ekspertizasi tadqiqot obyektlariga nimalar kirishini tushuntirib bering.
- Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish tartibini tushuntiring. Bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur boʻlgan hujjatlar va ma'lumotlarni yoritib bering.
- 37. Bojxona deklaratsiyasi nima? Bojxona deklaratsiyalarining turlarini tushuntirib bering.
- 38. Deklarantga qoʻyiladigan talablarni sanab bering. Deklarantning huquq va majburiyatlarini yoritib bering.
- 39. Bojxona brokerining huquqlari va majburiyatlarini yoritib bering.
- Bojxona toʻlovlarining qanday turlari mavjud? Bojxona toʻlovlarini toʻlash boʻyicha imtiyozlar va tarif preferensiyalarini yoritib bering.
- Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati deganda nima tushuniladi. Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullarini yoritib bering.
- Aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul hamda oʻxshash tovarga doir bitimning qiymatiga oid usul deganda nima tushuniladi?
- Bojxona to'lovlarini kechiktirib va bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish shartlarini tushuntirib bering.
- 44. Intellektual mulk obyektlariga boʻlgan huquqlarni himoya qilish borasida bojxona organlari tomonidan koʻriladigan choralar qanday tartibda amalga oshiriladi?
- 45. Chet ellik shaxslarning ayrim toifalari uchun bojxona imtiyozlari haqida tushuntirish bering.
- 46. Bojxona omborining, boj olinmaydigan savdo doʻkonining va erkin omborning faoliyatini litsenziyalash tartibini tushuntirib bering.
- Xalqaro pochta va kurerlik joʻnatmalarining bojxona koʻzdan kechiruvi hamda bojxona koʻrigi tartibini yoritib bering.
- 48. Xavfni boshqarish tizimi deganda nima tushuniladi?

- 49. Tovarni bojxona rejimlariga joylashtirilayotganda ruxsat berish tartib tamoyillarini tushuntirib bering.
- 50. Bojxona huquqining vujudga kelish tarixi, bojxona huquqining rivojlanish bosqichlarini yoritib bering. Bojxona maqsadlari nimalardan iborat ekanini Bojxona kodeksiga binoan tahlil qiling.

12.00.03 - Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

Fuqarolik huquqi

- 1. Fuqarolik qonun hujjatlari nimalarga asoslanadi va ular bilan qanday munosabatlar tartibga solinadi?
- 2. Xoʻjalik jamiyatlarida ustav fondini tashkil etishning maqsadi haqida fikr yuriting. Romano-german va anglo-sakson huquq tizimida ustav fondi va uning miqdori haqidagi qarashlar haqida mulohaza yuriting.
- 3. Fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining qanday asoslari mavjud?
- 4. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning qanday usullari mavjud? Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning qanday yangi usullari haqida bilasiz?
- Uy-joy qurishda investitsiya shartnomasining huquqiy tabiati haqida fikr bildiring. Ushbu shartnomaning pudrat va oldi-sotdi shartnomasiga oʻxshash va ulardan farqli jihatlari nimalardan iborat? Ushbu shartnomaning mazmuni haqida fikr yuriting.
- 6. Ma'lumki, fuqarolik muomala layoqatini cheklash asoslari va tartibi belgilangan. Mazkur masalani muhokama qilgan holda fuqarolik huquq layoqatini cheklash haqida mulohaza qiling.
- 7. Fuqaroning bedarak yoʻqolgan deb topilishi va uning oqibatlari haqida mulohaza yuriting, fuqaro bedarak yoʻqolgan deb topishdan qanday maqsad koʻzlanadi?
- 8. Yuridik shaxs tushunchasi va turlari haqida fikr yuriting, yuridik shaxsning vujudga kelishida qanday nazariyalar mavjud?
- 9. Kriptovalyutani fuqarolik huquqiy tartibga solish masalalarini muhokama qiling.
- Majburiyatni bajarish imkoniyati amalda yoʻqolganligi tufayli majburiyatni bekor boʻlishi haqida fikr 10. yuriting. Taraflardan biriga bogʻliq holatlar tufayli majburiyatni bajarish imkoni yoʻqolsa ham majburiyat bekor boʻladimi?
- Yuridik shaxsni qayta tashkil etishda universal huquqiy vorislik haqida fikr yuriting. Universal va singulyar huquqiy vorislik deganda nimani tushunasiz?
- 12. Nizoli bitimlarni haqiqiy emas deb topishning oʻziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
- Fuqarolik qonun hujjatlarining shaxslarga nisbatan tatbiq etilishi boshqa huquq sohalaridagi mazkur 13. insitutdan farqli jihatlarga ega. Avvalo ushbu farqlar qonun hujjatlarning aniq va maqsadli qoʻllanilishi hamda boshqa bir qator muhim omillar bilan bogʻliq. Muhokama qiling.
 - Amaldagi qonunchilikka koʻra, davlat organlari yoki fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq boʻlmagan hujjat qabul qilinishi, shuningdek ular mansabdor
- 14. shaxslarining gʻayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida yetkazilgan zarar qoplanadi. Qonun hujjatlariga muvofiq boʻlgan hujjat qabul qilinishi yoki mansabdor shaxsning qonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida yetkazilgan zararlarchi? Muhokama qiling.
 - Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilish oʻziga xos tizimga ega. Bunda usullar an'anaviy tarzda toʻrt guruhga ajratiladi va ularni qoʻllash ham turlicha (yurisdiksion va noyurisdiksion)
- 15. koʻrinishda boʻladi. Bugungi globallashuv sharoitida esa ular turli moddiy-huquqiy da'volar (vindikatsiya, negator, eviksiya, kondiksiya, tan olish va boshqalar) orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan global internet tarmogʻida mulk huquqining buzilishlariga nisbatan yuqorida sanab oʻtilgan himoya usullari va choralari qoʻllashga oid qanday ilmiy yechimlarni shakllantirish mumkin?
- 16. Shaxsiy nomulkiy huquqlar va mulkiy boʻlmagan shaxsiy huquqlar va ularni himoya qilish usullari haqida mulohaza qiling.
- Qonunchilikda fuqarolik huquqi obyektlari tarkibiga "jismsiz ashyo", "talab qilish huquqi" toʻgʻridantoʻgʻri nazarda tutilmagan boʻlsada fuqarolik muomalasida harakatda boʻladi. Koʻpchilik holatda esa

- ular fuqarolik huquqi obyektlaridan birining tarkibiga kiradi deb hisoblanadi. Muhokama qiling.
- Ma'lumki, vakillik ishonchnoma, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asosan vujudga keladi. Vakillikning shartnoma asosida vujudga kelishi haqida mulohaza qiling.
- Oʻn toʻrt yoshdan oʻn sakkiz yoshgacha boʻlgan voyaga yetmaganlar oʻzlari mustaqil ma'lum turdagi 19. bitimlari tuzishlari mumkin. Biroq ularning ota-onalari va ularning oʻrnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmagan bolalarning mazkur huquqlarini cheklashlari mumkin. Muhokama qiling.
- 20. Toʻlovga qobilyatsizlikda qarzdor tuzgan bitimning haqiqiy emasligi toʻgʻrisida nazariya va amaliyotning oʻziga xos xususiyatlarini yoriting.
- Shartnoma tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy boʻlib qoladi. Bundan kelib chiqib, shartnoma faqat kelajak uchun amal qiladi deb hisoblash mumkin. Biroq, taraflar oʻzlari tuzgan shartnomaning shartlarini ularning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qoʻllaniladi deb belgilab qoʻyishga haqli. Muhokama qiling.
- 22. Qayta sotib olish sharti bilan sotishni fuqarolik huquqiy tartibga solishni yoritib bering.
- Ofertada shartnomaning muhim shartlari ifoda qilingan boʻlishi kerak. Muhim shart sifatida har doim shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari hisoblanadi. Chunki har qanday shartnoma mazmunini taraflarining huquq va majburiyatlari tashkil qiladi. Muhokama qiling.
- Qoʻshnichilik huquqini fuqarolik huquqiy tartibga solinishining oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- Mualliflik huquqi obyektlari muallifning obyektiv shaklda aks etgan intellektual faoliyat natijasi boʻlishi kerak. Ushbu talablarga oid nisbatan batafsilroq yondashuvlar doktrinada va huquqni qoʻllash amaliyotida shakllanadi. Asarning originalligini aniqlash hamda obyektiv shaklga ega boʻlishi masalalari haqida fikr yuriting.
- Ashyoviy huquqlar tizimi haqida fikr yuriting. Egalik qilishning oʻziga xos xususiyatlarini muhokama qiling.
- Vorislik huquqida meros tarkibini aniqlashtiruvchi qoidalar belgilangan. Meros tarkibiga kirmaydigan mol-mulk turlari, shuningdek, alohida toifadagi mol-mulkni meros qilib olish xususiyatlari (umumiy mulkni meros qilib olish, yer uchastkasi, korxona, turar-joy va uyroʻzgʻor buyumlarini meros qilib olish) haqida fikr yuriting.
- 28. Davlat mulkni xususiylashtirishni fuqarolik huquqiy tartibga solishning yangi usullari haqida fikr yuriting.
- ^{29.} Culpa in contrahendo doktorinasini milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish haqida fikr yuriting.
- 30. Da'vo muddati tushunchasi va turlari. Da'vo muddatining o'ta boshlashi qaysi hollarda to'xtatiladi?
- 31. Servitutning fuqarolik huquqiy tartibga solinishi: ommaviy va xususiy servitut.
- Majburiyat bajarilmaganida kreditor qarzdordan neustoyka va yetkazilgan zarar undirilishi talab 32. qilishga haqli sanaladi. Ayni paytda bu talab turlicha huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Muhokama qiling.
- 33. Umumiy mulk tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari nimalardan iborat?
- Mulkdor boʻlmagan eganing huquqlarini himoya qilishda qonunchilikdagi soʻnggi oʻzgarishlar haqida fikr bildiring.
- Chakana oldi-sotdi shartnomasida tovarni sotish tartibi belgilangan va tovarni bunday sotish oldi-sotdi shartnomasining umumiy qoidalariga boʻysundirilgan. Biroq, chakana oldi-sotdi shartnomasida oldi-sotdi shartnomasining umumiy qoidalaridan farq qilgan holda tovar sotishning ayrim oʻziga xos tartiboti ham belgilangan. Muhokama qiling.
- 36. Umumiy mulk huquqida mol-mulkni yaxshilash masalasi belgilangan. Shuningdek, ijaraga olingan mol-mulkni yaxshilash bir qator yuridik va amaliy harakatlarni amalga oshirishni talab etadi. Shundan kelib

- chiqib, yaxshilashning huquqiy oqibati ham turlichadir. Muhokama qiling.
- Undiruvni garovga qoʻyilgan mol-mulkka qaratishning asoslari va tartibi. Garovga qoʻyilgan mol-mulkni sotish tartibi.
- 38. Kreditor huquqlarining boshqa shaxsga oʻtish asoslari va tartibi. Kreditorning majburiyat boʻyicha huquqlari qaysi hollarda boshqa shaxsga oʻtadi?
- Majburiyatni bajarmaganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qoʻllash asoslari va tartibini yoriting.
- 40. Jismoniy shaxs bankrotligining fuqarolik-huquqiy asoslari haqida fikr yuriting.
- Sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si fuqarolik huquqining obyekti sifatidadagi o'rni va roli haqida fikr yuriting.
- 42. Fuqarolik huquqida regress talablari va subrogatsiyaning oʻxshash va farqli jihatlari haqida fikr yuriting.
- 43. Shaxsiy nomulkiy huquq sifatida shaxsiy tasvirning daxlsizligi: nazariya va amaliyot haqida fikr yuriting.
- Frilanserning fuqarolik huquqiy maqomini belgilash muammolari: nazariya va amaliyot haqida fikr yuriting.
- 45. Majburiyatda subsidiar javobgarlik mazmun-mohiyatini tushuntiring.
 - Bugungi kunda "mulk" va "mol-mulk" tushunchalariga nisbatan yondashuvlar tubdan oʻzgarmoqda. Mulkni an'anaviy klassik tushunish bilan birga, "virtual mulk", "raqamli mulk", "Internet ashyolar"
- 46. kabi terminlar ham koʻzga tashlanmoqda. Mazkur yondashuvlar asosida mulkni tushunishga nisbatan qonunchilikdagi yondashuvlar qanday yoʻnalishda rivojlanishi lozim? "Internet ashyolar", "virtual mulk", "raqamli huquqlar" kabi terminlarni qonunchilik darajasida ifodalash mumkinmi?
- Uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnomalarni fuqarolik-huquqiy xarakteri deganda nima tushuniladi?
- 48. Majburiyat tushunchasi. Majburiyatni bajarish muddati? Majburiyatning bajarilishi qanday usullar bilan ta'minlanishi mumkin?
 - Intellektual mulk huquqining mohiyatini tushunishga nisbatan bir qator na zariya (propritar, istisno huquq, shartnoma va shu kabi)lar mavjud. Mazkur nazariyalar keyingi paytda Internet global
- 49. tarmogʻining rivojlanishi bilan yangicha ma'no kasb etib bormoqda. Ayni paytda milliy qonunchilikni rivojlantirish qaysi nazariya asosida shakllantirishi maqbul sanaladi. Bunda Internetda intellektual mulk huquqini himoya qilishga nisbatan qanday yondashuvlar mavjud?
 - Fuqarolik huquqining bir qator funksiyalari orasida kompensatorlik funksiyasi ham mavjud. Bu funksiya huquqni tiklash, zararni qoplash hamda javobgarlik konsepsiyalaridan muayyan farqlarga ega. Keyingi yillarda fuqarolik huquqining kompensatorlik funksiyasiga oid qarashlardan kelib chiqib milliy
- 50. qonunchilikda bir qator yangi normalar kiritildi. Fuqarolik huquqining kompensatorlik funksiyasining mohiyati hamda uning huquqni tiklash, zararni qoplash hamda javobgarlik konsepsiyalaridan farqi tahlil qilingan. Internet tarmogʻida fuqarolik huquqining kompensatorlik funksiyasi namoyon boʻlishi va bu boʻyicha qonunchilikni takomillashtirish yoʻnalishlari qanday kechishini tahlil qiling.

Oila huquqi

- Oila huquqi mustaqil huquq tarmoqmi yoki fuqarolik huquqining maxsus instituti sifatida qaralishi lozimmi? Bu masala boʻyicha doktrinal pozitsiyalar va ularning amaliy oqibatlarini tahlil qiling.
- 2. Surrogat onalik va uni Oʻzbekiston sharoitida amalga oshirish muammolari haqida fikr yuriting.
 - Er-xotin tomonidan bolalar uchun sotib olingan mulkning huquqiy rejimini aniqlashda fuqarolik va oila qonunchiligi tutashgan joyda yuzaga keladigan yuridik kolliziyalarni va ularni hal etishda sud
- 3. pretsedentlarining samaradorligini tadqiq eting. Oʻzbekiston fuqarolik huquqining umumiy liberallashuvi kontekstida oilaviy munosabatlarni shartnomaviy tartibga solish instituti qanday rivojlanmoqda?
- 4. Islomiy nikoh shartnomasi: oila qonunchiligiga rioya qilish muammolari haqida nimalarni bilasiz?

- 5. "Oilaviy munosabatlarni davlat huquqiy tartibga solishi" gʻoyasi fuqarolik jamiyati prinsiplariga qay darajada mos keladi?
- 6. Oilaviy-huquqiy munosabatlar oʻzining mazmuniga koʻra boshqa huquqiy munosabatlardan oʻziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Muhokama qiling.
- 7. Oila huquqining subyektlari va obyektlari oʻziga xos xarakter kasb etadi. Muhokama qiling.
- 8. Oila huquqida avtonomiya irodasi va davlat majburiyati tamoyillari oʻrtasidagi dialektik ziddiyatni izohlang.
- Oilaviy subyektiv huquq va majburiyatlar asosan shaxsiy xarakterga ega boʻlsa-da, ular ichida mulkiy xarakterga ega boʻlgan huquq va majburiyatlar ham alohida oʻrin egallaydi. Muhokama qiling.
- Oʻzbek huquqshunoslarining alohida yashovchi ota-onaning tarbiyalashda ishtirok etish huquqi bilan bolaning hayot tarzining barqarorligi huquqi oʻrtasidagi muvozanatni aniqlashga oid nazariy yondashuvlarini tahlil qiling. Ota-onaning hududiy uzoqligi sharoitida ota-onalik huquqlarini tegishli ravishda amalga oshirish mezonlari boʻyicha qanday doktrinal pozitsiyalar mavjud?
- Oila kodeksida nikoh tushunchasi aniq tarif berilmagan. Biroq, unda nikohning erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi ekanligi qayd etilgan. Muhokama qiling.
- 12. Umumiy qoidaga koʻra oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddati qoʻllanmaydi. Ammo, istisno holatlar mavjud. Ularni muhokama qiling.
- Oila kodeksi 16-moddasida belgilangan nikoh tuzishga monelik qiluvchi holatlarni tahlil qiling va monelik qiluvchi holat boʻyicha bir jinsli nikoh yoki nikohni boshqa konstruksiyalari kiritilmaganligi toʻgʻrisida fikr yuriting.
- Oila huquqining manbalari tizimida Konstitutsiya normalarining "bevosita amal qilishi" prinsipi qay darajada samarali?
- Oila qonunchiligi nikoh tuzish uchun bir qator shartlar belgilaydi. Agar mazkur shartlarga rioya qilinmasa, nikoh tuzishga yoʻl qoʻyilmaydi. Fikr bildiring.
- 16. Nikohni haqiqiy emas deb topish muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradimi?
- 17. Er va xotinning huquq va majburiyatlarining vujudga kelish asoslari haqida fikr yuriting.
- 18. Nikohni haqiqiy emas deb topish instituti jamiyat axloqini himoya qilish vositasimi yoki shaxsiy erkinlikka aralashuvmi?
